



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR, INNOVATSIYALAR”

mavzusidagi

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**



2024-yil, 22-noyabr

www.buxdu.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR,
INNOVATSIYALAR**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

2024-yil 22-noyabr

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandiga asosan xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosdagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarning o'z vaqtida samarali o'kazilishini hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yilning 22-noyabr kuni Buxoro davlat universitetida **"PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR, INNOVATSIYALAR"** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Respublika ilmiy-amaliy anjumani asosiy maqsadi - psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ushbu yo'nalishdagi yangi ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish, ularni amaliyotga tatbiq qilish, psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy psixologik va information texnologiyalardan samarali foydalanish, yoshlarni milliy g'urur va ma'naviy fazilatlarga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta'minlash, murakkab vaziyatlarga shaxsning bardoshlilikni, yuksak hislarni tarbiyalash hamda ilmiy, innovatsion, pedagogik faoliyatida psixologik xizmatni ko'rsatish va tegishli mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Anjuman materiallaridan oliy ta'lim muassasalari talabalari, magistrlar, doktorantlar va professor-o'qituvchilar foydalanishi mumkin.

TAHRIR HAY'ATI:

Xamidov O.X. – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Rasulov T.H. – fizika-matematika fanlari doktori, professor;
Nazarov A.M. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Chudakova V.P. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Müşerref D.- psikologik bilimlar adayı, professor;
Trushina I.A. - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Zabelina E.V. - psixologiya fanlari doktori, dotsent;
Leonova V.O. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Kozubtsov I.N. - pedagogika fanlari doktori, dotsent;
Amarasena J. – Buxoro innovatsiyalar universiteti prorektori;
Xusainova T.M. - sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
Barotov Sh.R. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Huseynova A.A. – falsafa fanlari doktori, professor;
Abdullayeva B.S. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Akramova F.A. – psixologiya fanlari doktori, professor.

Maqolalarning to'g'ri va aniqligiga mualliflar mas'uldir.

**© PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR,
INNOVATSIYALAR**

Konferensiya materiallari to'plami Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO'ZI

Assalomu-aleykum hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Sizlarni Buxoro davlat universitetining anjumanlar zalida ko'rib turganimizdan xursandmiz.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mamlakatimizdagi ijtimoiy jarayonlar haqida ishonchli axborot berish maqsadida matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturalar tashkil etilmoqda, hayotimizdagi muammo va hodisalarga tezkor munosabat bildirilmoqda, ularning veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil messenjerlardagi sahifalari yangilab borilmoqda. Bugun biz hamma sohada, jumladan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida yutuqlar bilan birga, kamchiliklar va nuqsonlar bo'lishi ham tabiiydir.

Jahonda shiddat bilan davom etayotgan globallashuv, innovatsion texnologik jarayonlarning murakkablashishi va tezlashishi natijasida axborot xurujlarining inson ruhiyatiga ta'sirining mohiyatini ochib berish, insondagi o'ziga xos psixologik xususiyatlar rivojlanishini obyektiv aks ettirish muammosi yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yilning 22-noyabr kuni Buxoro davlat universitetida **“Psixologik tadqiqotlarda muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. Bugun o'tkazilayotgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etilishidan maqsad shundaki, psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ushbu yo'nalishdagi yangi ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish, ularni amaliyotga tadbiiq qilish, psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy psixologik va information texnologiyalardan samarali foydalanish, yoshlarni milliy g'urur va ma'naviy fazilatlariga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta'minlash, murakkab vaziyatlarga shaxsning bardoshlilikni, yuksak hislarni tarbiyalash hamda ilmiy, innovatsion, pedagogik faoliyatida psixologik xizmatni ko'rsatish va tegishli mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Respublikamizda psixologiya sohasida 60 nafar fan doktori, 140 nafar fan nomzodlari faoliyat yuritmoqda, Shundan kafedrada 3 nafar fan doktori, 13 nafar fan nomzodi, falsafa doktorlari faoliyat olib bormoqdalar. Universitet huzurida psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Mazkur kafedra tashabbusi bilan “Psixologiya” jurnali va “Вестник интерактивный психологии” xalqaro OAK jurnallari nashr qilinmoqda. Psixologiya kafedrasida huzurida “Psixologik klinika” faoliyati tashkil qilingan bo'lib, hozirda aholiga samarali psixologik xizmat berib bormoqda.

Mazkur kafedra Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va Buyuk Britaniyaning Sankt-Peterburg universiteti bilan doimiy hamkorlik olib bormoqda. Ushbu anjumanga 300 dan ortiq ishtirokchilar o'z maqolalari bilan qatnashmoqda. Xorij OTMlaridan 10 nafar, Respublika oliy ta'lim muassaslaridan esa 20 nafardan ortiq psixolog olimlar offlayn va onlayn shaklda ishtirok etishmoqda.

O'ylaymanki, bugun ushbu anjumanda muhokama qilinadigan masalalar, qabul qilinadigan xulosalar, ilgari suriladigan takliflar psixologiya sohasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Anjuman ishiga omad tilayman.

Obidjon Xamidov Xafizovich

Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Dehqonboyev Shohjahon Oybek og'li

Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrası magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud psixologik ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazishning innovatsion va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish borasidagi samarali faoliyat olib borish tartibi tahlil qilingan. Bundan tashqari sud psixologik ekspertizasini olib borish bosqichlari bo'yicha tavsiya va xulosalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, psixologik ekspertizaning asosiy vazifalari, ekspertga qo'yilgan talablar, psixolog ekspertining faoliyat olib borish tartibi, huquqlari, majburiyatlari, burchlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekspert, qobiliyat, psixik hodisalar, sud tibbiy ekspertizasi, kompleks ekspertizalar, tergov, affekt, stress, jinoiy ish.

Аннотация. В данной статье анализируется порядок организации и проведения судебно-психологической экспертизы для осуществления эффективной деятельности с использованием инновационного и передового зарубежного опыта. Кроме того, разработаны рекомендации и выводы по этапам проведения судебно-психологической экспертизы. Также речь идет об основных задачах психологической экспертизы, требованиях к эксперту, порядке осуществления деятельности экспертом-психологом, его правах, обязанностях, обязанностях.

Ключевые слова: эксперт, способность, психические явления, криминалистика, комплексные экспертизы, следствие, аффект, стресс, уголовное дело.

Annotation. This article analyzes the procedure for organizing and conducting a forensic psychological examination and conducting effective activities on the use of innovative and advanced foreign experiments. In addition, recommendations and conclusions have been developed on the stages of conducting a forensic psychological examination. It also talks about the main tasks of psychological examination, the requirements for the expert, the procedure for conducting activities of the psychologist's expert, rights, obligations, duties.

Key words: expert, Ability, Psychic Phenomena, forensic medical examination, comprehensive examination, investigation, affect, stress, criminal case.

Kirish. Jahonda sud psixolog eksperti va voyaga yetmaganlarni sud psixologik ekspertiza qilishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, uni bugungi zamon talablari asosida o'qitishning ilg'or yondashuvlarini joriy etish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida ichki ishlar organlari psixologi kasbiy kompetentligini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari fan-texnika taraqqiyoti, insonlarning sifatli va aniq ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlarining ortishi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida ham kishini quvontiradigan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari, qonun osti hujjatlari jumladan farmonlar, farmoyishlar, qarorlar va buyruqlar kabi tashkiliy huquqiy hujjatlar qo'llanilmoqda.

Yuridik psixologiya fanining nazariy va amaliy muammolari, fanni o'qitishdagi innovatsiyalar, o'quv dasturi, ma'ruza matnlari, keyslar, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari shu kunga qadar oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan etarli darajada o'rganilmaganligi yuridik psixologiya fani muammolarini, xususan sud psixologik ekspertiza mavzusi muammolarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng tatbiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko'p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog'liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarining ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug'ullana boshladilar.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng tatbiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko'p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog'liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarining ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug'ullana boshladilar.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma'lum bo'lishicha, ilk marta 1810 yilda Napoleon "jinoyat kodeksi"ga o'z xatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik (vnmenyaemost, nevmenyaemost) layoqatini aniqlash tushunchasini kiritdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchining o'z xatti-harakatlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864 yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilgan edi. Ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik - ekspertiza o'tkazish ham ko'zda tutilgan. Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlandi.

Asrimizning o'rtalariga kelib, eksperimental psixologiya sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo'nalish bo'yicha laboratoriyalar tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulqi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o'rganila boshlandi.

1922 yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. Asrimizning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha markazlar ochilib, ularda sud psixologik ishlari olib borila boshladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, psixologik ekspertiza xizmati yana rivojlana boshladi. Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, o'rganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunchovchiliklar barham topdi.

O'zbekistonda XX asrning 70-80-yillaridan boshlab, psixologiya, huquqshunoslik psixologiyasi, kriminal psixologiya fanlari muayyan darajada rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu sohadagi o'zgarishlar yanada yaqqol sezila boshladi. Qonunchiligimiz asosi rivojlangan dunyo mamlakatlari tajribasidan foydalanilgan holda xalqaro talablar asosida qayta ko'rib chiqilib, yangilandi va takomillashtirildi. Sud ekspertizalari va shu jumladan, sud psixologik ekspertizasiga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Sud-psixologik ekspertizasini o'tkazish

Sud - psixologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikai JPKning tegishli moddasiga binoan, tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorga ko'ra tayinlanadi. Sudda esa ko'rilayotgan ishda psixologik mazmundagi vaziyatlarning mavjudligi haqida va ularning tergov jarayonida o'z yechimini topmaganligiga shubha tug'ilgan holatlarda sudya tomonidan chiqarilgan qarorga binoan, sud - psixologik ekspertizasi tayinlanadi. Bu xildagi protsessual hujjatlarda ekspertizadan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxs, uning sodir etgan jinoiy xatti-harakati haqidagi qisqacha bayonnoma hamda ushbu sodir etilgan jinoiy xatti-harakatda psixologik mazmundagi holatlarning mavjudligiga asoslanib, sud psixologik ekspertizasini tayinlash zarurligi to'g'risidagi fikr aks etgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatda ekspert aniqlanib, uning oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan savollar qo'yilishi kerak.

Jinoyat protsessual qonun talablariga ko'ra, tergovchi tayinlangan barcha ekspertizalarda, jumladan, sud - psixologik ekspertizasi o'tkazish jarayonida ham qatnashish huquqiga ega. Biroq qonunni inkor qilmagan holda, bizning nazarimizda, tergovchining sud - psixologik ekspertizasida qatnashishini har doim ham maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Chunki ayrim hollarda psixologik eksperiment o'tkazish jarayonida tergovchining qatnashishi sinaluvchi uchun teskari ta'sir qilishi, ya'ni uning ko'nglidagi fikr-mulohazalarini ochiq-oydin ayta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayblanuvchi o'z jinoyatini tergov jarayonida tan olmagan bo'lsa, psixologik ekspertiza jarayonida jinoyatni sodir etganligini bo'yniga olishi mumkin. Bunday vaziyatda ekspert ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini tan olganligini ta'kidlab, jinoyatning sodir etilish holatlarini ekspertiza xulosasida ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda, psixologik ekspertizaning bunday vaziyatlarni yoritib berishi ko'rilayotgan ishning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, unutmaslik kerakki, psixologik ekspert ushbu xulosalarni faqat o'rganilayotgan ayblanuvchiga nisbatangina berishi zarur. Agarda ekspertiza uchun qo'shimcha ma'lumotlar olinishi lozim bo'lsa, ekspert-psixolog boshqa mutaxassislarni ham ekspertizaga taklif qilish huquqiga ega. Sudda sud - psixologik ekspertizasini o'tkazish dastlabki tergov jarayonida o'tkaziladigan psixologik ekspertizaga qaraganda bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Xususan, sud ekspert-psixolog jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan holatlar bo'yicha, ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini isbotlash jarayonida, uni so'roq qilishda va

hokazolarda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashadi. U psixologik tadqiqot jarayoniga zarur boshqa kishilarni taklif etishi va ish yuzasidan yangi daliliy ko'rsatmalarni talab qilishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Bogdanov V.M. Psixologicheskie osobennosti professionalnogo mishleniya rabotnikov ugolovnogo roziska. Omsk. 1994.
3. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (1-qism). Darslik. - Toshkent: TDYuI, 2009.
4. R.Qobilov, A.A. Otajonov va boshqalar Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik.– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.

SOS O'ZBEKISTON BOLALAR MAHALLALARI O'SMIR YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARIDA GENDER IDENTIKLIKNING NAMOYON BO'LISHI

Niyazova Nilufar Farhadovna

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning jinsiy identifikatsiyasini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklarni o'rganadi. Ota-onaning yo'qligi tufayli bu o'smirlar xavfsizlik hissi va ijtimoiy qo'llab-quvvatdan mahrum bo'lib, jinsiy rol va o'zlikni anglashda noaniqliklarga duch keladi. Tadqiqot psixologik va tarbiyaviy yordam dasturlarining muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar, jinsiy identifikatsiya, bog'lanish nazariyasi, gender identifikatsiyasi, ijtimoiy rivojlanish, psixologik qo'llab-quvvatlash, o'smirlik davri.

Аннотация: В данном исследовании рассматриваются трудности в процессе формирования половой идентичности подростков, оставшихся без попечения родителей. Из-за отсутствия родителей эти подростки лишены чувства безопасности и социальной поддержки, сталкиваются с неоднозначностью восприятия гендерных ролей и идентичности. Исследования подчеркивают важность программ психологической и образовательной поддержки.

Ключевые слова: подростки, оставшиеся без попечения родителей, сексуальная идентичность, теория привязанности, гендерная идентичность, социальное развитие, психологическая поддержка, подростковый возраст.

Abstract: This study examines the difficulties in the process of forming the sexual identity of adolescents who are left without parental care. Due to the absence of parents, these adolescents are deprived of a sense of security and social support, and face ambiguity in their sense of gender roles and identity. Research highlights the importance of psychological and educational support programs.

Key words: adolescents left without parental care, sexual identity, attachment theory, gender identity, social development, psychological support, adolescence.

Kirish. Bugungi kunda ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi murakkab jarayonlar jamiyat uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, jinsiy identifikatsiya kabi muhim jarayonlar ushbu yoshdagi o'smirlarning o'zligini anglash, gender rollarini qabul qilish va ijtimoiy moslashishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar ko'pincha oilaviy tayanch va tarbiya yetishmovchiligi tufayli o'z jinsiy identifikatsiyasini shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu holat ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida jiddiy psixologik to'siqlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ularning jinsiy identifikatsiyasini o'rganish, bu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatish yo'llarini

Samatova Sevara G'ayratovna. AFILLIATSIYA MOTIVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	245
Abdullayev Amrullo Nasulloyevich. TALABALARIDA PEDAGOGIK MULOQOT OMILLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI.....	247
Hayitov Xurshid Xudoyqulovich. IQTISODIY MUNOSABATLARNI TARKIB TOPTIRISHDA PSIXOLOGIK USULLARNING TUTGAN AMALIY AHAMIYATI.....	252

IV SHO'BA. OILADA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA YANGI

PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR 257

To'rayeva Gulchexra Urayimovna. O'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQNING PSIXOKORREKSION MODEL 258	258
Shayxımanova Shaxnoza Joldasbay qizi. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR MULOQOTINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..... 261	261
Boltayev Sardor Ibatovich. TURMUSH TARZI VA UNING QARISH JARAYONLARI UCHUN AHAMIYATI..... 263	263
Mavlonov Doniyor Ergash o'g'li. O'SMIRLARDAGI ICHKI NIZOLARNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI..... 265	265
Шарипова Муштари Толибжон кизи. ОСНОВНЫЕ МОДЕЛИ ПСИХОСОМАТИЧЕСКИХ НАРУШЕНИЙ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ 267	267
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna. YOSH MUTAXASSISLARNI JAMOAGA MOSLASHUVINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..... 271	271
Radjabova Umida Ubaydulloyevna. OIV bilan kasallangan bemorlarga psixologik yordam KO'RSATISH MASALALARI..... 273	273
Avezova Baxtigul Xolmurotovna. IRODAVIY SIFATLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISHGA TA'SIRINI O'RGANISH 276	276
O'razaliyeva Sevinch Marat qizi, O'SMIRLIK DAVRIDA KASB TANLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI..... 281	281
Kurbaniyozova Ra'no Yuldashevna. KEKSALARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHNING MAZMUNI..... 283	283
Togonova Shoxida Alisher qizi. TALABA SHAXSIDA KOGNITIV KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGOK XUSUSIYATLARI..... 284	284
Razakova Rayxan Saylaubekovna. YOLG'IZLIK HISSINING TURLI YOSH DAVRLARIDA NAMOYON BO'LISHI..... 287	287
Nasirdinova Soliha Ravshanbek qizi. O'QUVCHILARDA SANOGEN TAFAKKURNI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..... 289	289
Xudoyqulova Gulshoda Baxranovna. OILAVIY ZO'RAVONLIKLARNI OLDINI OLISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI 292	292
Dehqonboyev Shohjahon Oybek og'li. SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI 296	296
Niyazova Nilufar Farhadovna. SOS O'ZBEKISTON BOLALAR MAHALLALARI O'SMIR YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARIDA GENDER IDENTIKLIKNING NAMOYON BO'LISHI..... 299	299
Sabrina Kamolova Habibovna. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM OLUVCHI XORJIY TALABALARINING MOSLASHUV JARAYONLARINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 302	302
Maxmudova Zulfiya Mexmonovna. QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGI..... 305	305
Maxmudova Zulfiya Mexmonovna, SOCIO-PSYCHOLOGICAL DIAGNOSTICS OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF EMPLOYEES 310	310
Olimov Laziz Yarashovich. INSPEKTOR-PSIXOLOGNING SUD VA TERGOV FAOLIYATI DOIRASIDA EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI..... 317	317

СОИСКАТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	394
Кулиев Ёркин Каримович. ВОВЛЕЧЕННОСТЬ КАК ОСНОВНОЙ АСПЕКТ	
МОТИВАЦИИ СОТРУДНИКОВ.	398
Po'latova Madina Shavkatovna. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA	
DIQQATNING RIVOJLANISHI VA UNING O'QUV MOTIVATSIYASIGA TA'SIRI...	403
Safarova Nafisa Qayumovna. HARBIYLARNING O'Z-O'ZINI IRODAVIY	
BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI.....	405
Usmanova Manzura Naimovna. ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI	
O'QITISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI....	408
Ostanov Shuxrat Sharifovich. GLOBALLASHUV DAVRIDA TALABALARINING	
KREATIVLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY - PSIXOLOGIK	
XUSUSIYATLARI	411
Ismatova Dilafroz Tuymuratovna. OTA-ONA SHAXSINING FARZAND	
TARBIYALASH JARAYONIDAGI MAS'ULIYATINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK	
TA'SIRI.....	413
Jumayev Nodir Zaynitdinovich. O'SMIRLARDA INTELLEKTUAL QOBILİYATLARINI	
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	416
Ostanov Shuxrat Sharifovich, Hamroyev Jasurbek Umedovich. ZAMONAVIY	
YOSHLARNING IJTIMOY XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA	
INTELLEKTNING ROLI	418
Jumayev Ulug'bek Sattorovich. SALOMATLIKNING IJTIMOY PSIXOLOGIK	
XUSUSIYATLARI: TUSHUNCHI VA MOHIYAT, UNI SHAKLLANTIRISH	
OMILLARI.....	420
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna. YOSHLARNI SOTSIAL MANIPULYATSION	
TA'SIRLARDAN MUHOFAZA QILISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINI	
TAKOMILLASHTIRISH	423
G'aybullayev Alisher Asadovich. MAKTAB BOLALARIDA BEZORILIK XULQ-	
ATVORNI NORMALLASHTIRISHNING IJTIMOY - PSIXOLOGIK	
XUSUSIYATLARI	425
Джалилова Зарнигор Баходировна, Нутфуллаева Лолахан Фирузовна. ПОДХОДЫ	
К ПОНИМАНИЮ РОЛИ ЯЗЫКА В РЕКЛАМНОМ ДИСКУРСЕ	427
Rahimov Uchqun Alimbaevich. ISLOM DINI VA SOG'LOM TURMUSH TARZI	
PSIXOLOGIYASI.....	431
Toirov Umid Usmonovich. MAHKUMLARNING OZODLIKDAN MAHRUM QILISH	
JOYLARIDA BO'LISH MUHITINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI...	433
Qodirova Durdona Furkatovna. TALABALARINING CHET TILLARINI	
O'ZLASHTIRISHIDA LINGVISTIK	435
Atabayeva Nargis Batirovna, Alimjonova Durdona Yunusjon qizi. OILADA BOLANING	
ALTRUISTIK MOTIVLARINI RIVOJLANISHI.....	437
Акрамова Феруза Акмаловна, Билолова Замира Бахтияровна. ТАРБИЯСИ ҚИЙИН	
ВА ХУЛҚ ОФИШГАН БОЛАЛАР БИЛАН ОЛИБ БОРИЛАДИГАН	
ПСИХОПРОФИЛАКТИК ИШ ШАКЛЛАРИ.....	439
Феруза Акмаловна Акрамова. ПРИМЕНЕНИЕ МЕДИАЦИИ ПРИ ОКАЗАНИИ	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ СЕМЬЕ	444

PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR, INNOVATSIYALAR

***ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO'PLAMI***

Muharrir: A.M.Nazarov
Texnik muharrir: N.R.Axmadov
Sh.O.Dehqonboyev

Nashriyot litsenziyasi AI № 178.08.12.2010
Adadi 10 nusxa. Buyurtma № 259. Hajmi 330 bet. Formatı A4. 2024-yil.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
«Durdona» nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.